



# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## DEMOGRAFIK HOLATI

*2023-yil  
yanvar-dekabr*



## SURXONDARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024-yil 1-yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Surxondaryo viloyatida 2024-yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni **2877,1** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **70,6** ming kishiga yoki **2,5 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1041,0** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,2 %**), qishloq aholisi soni **1836,1** ming kishi (**63,8 %**) ni tashkil etdi.

Viloyat ma'muriy-hududiy jihatdan 1 ta viloyat bo'ysunuvidagi shahar va 14 ta tumanga bo'lingan, aholi zichligi 1 kv. km ga 143,1 kishiga to'g'ri keladi.

Ma'muriy markazi – Termiz shahri bo'lib, aholisi 201,6 ming kishi.

### Doimiy aholi soni

**2877,1**  
ming kishi

### Tabiiy o'sish

**+74,2**  
ming kishi

### Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

#### Shahar joylarda



**1041,0** ming kishi

#### Qishloq joylarda




**1836,1** ming kishi

### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024-yil 1-yanvar holatiga

#### Erkaklar


**50,6 %**




**1455,8** ming kishi

#### Ayollar

**49,4 %**



**1421,3** ming kishi





## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

*1-yanvar holatiga, ming kishi*

	2022-yil	2023-yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2806,5</b>	<b>2877,1</b>	<b>102,5</b>
Termiz sh.	195,7	201,6	103,0
tumanlar:			
Oltinsoy	187,9	192,6	102,5
Angor	140,4	143,8	102,4
Bandixon	80,8	83,0	102,7
Boysun	122	124,6	102,1
Muzrabot	150,4	153,6	102,1
Denov	409,5	420,2	102,6
Jarqo'rg'on	232,1	238,4	102,7
Qumqo'rg'on	249,2	255,5	102,5
Qiziriq	121,3	124,0	102,2
Sariosiyo	222,5	228,0	102,5
Termiz	82,3	84,7	102,9
Uzun	183,3	187,8	102,5
Sherobod	206,1	210,8	102,3
Sho'rchi	223,0	228,5	102,5

## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

*1-yanvar holatiga, ming kishi*



Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2024-yil 1-yanvar holatiga, eng ko'p aholi soni Denov tumanida 420,2 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (14,6 %) va Qumqo'rg'on tumanida 255,5 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on tumanida 238,4 ming kishi (8,3 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 83,0 ming kishini (2,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati yil boshiga nisbatan soni Denov tumanida 10,6 ming kishi (2,6 %) va Qumqo'rg'on tumanida 6,3 ming kishini (2,5 %), Jarqo'rg'on tumanida 6,3 ming kishi (2,7 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 2,2 ming kishini (2,7 %) tashkil etdi.



# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


## Surxondaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023-yil yanvar-dekabr, dastlabki ma'lumotlar



## Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2024-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi



## Viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati (yanvar-dekabr)

	<i>kishi</i>			<i>1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>o'sish, kamayish, +,-</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>
Tug'ilganlar	81 547	87 695	6 148	29,4	30,9
O'lganlar	13 851	13 507	-344	5,0	4,8
Nikohlar	26 762	24 874	-1 888	9,6	8,8
Ajralishlar	2 804	3 047	243	1,0	1,1
Ko'chib kelganlar	9 577	9 997	420	3,5	3,5
Ko'chib ketganlar	14 007	13 556	-451	5,0	4,8

**Tug'ilish.** 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 87,7 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va keyinchalik tirik tug'ilganlar inobatga olinadi), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 30,9 promilleni tashkil etdi hamda 2022-yilning mos davriga nisbatan 1,5 promillega ko'payganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 29,4 promille bo'lgan).

*Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*

**Qiz bola:**

**42,2 ming kishi**



**O'g'il bola:**

**45,5 ming kishi**




## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 87,7 mingta tug'ilganlar qayd etilgan bo'lib, shundan o'g'il bolalar 45,5 ming kishini, qiz bolalar 42,2 ming kishini tashkil etadi.

### Hududlar kesimida tug'ilganlar sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, (1-yanvar holatiga, kishi)

	2022-yil	2023-yil*	O'sish sur'ati %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>81 547</b>	<b>87 695</b>	<b>107,5</b>
Termiz sh.	5507	5459	99,1
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	5335	5904	110,7
Angor	3974	4187	105,4
Bandixon	2547	2756	108,2
Boysun	3330	3602	108,2
Muzrabot	4279	4430	103,5
Denov	12157	13269	109,1
Jarqo'rg'on	6971	7869	112,9
Qumqo'rg'on	7497	7860	104,8
Qiziriq	3561	3780	106,1
Sariosiyo	6208	6767	109,0
Termiz	2446	2767	113,1
Uzun	5262	5771	109,7
Sherobod	5690	6105	107,3
Sho'rchi	6783	7169	105,7

## Hududlar kesimida tug‘ilishlar soni va tug‘ilish koeffitsiyenti (2023-yil yanvar-dekabr)






**Tabiiy o‘shish.** 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o‘shishi 74,2 ming kishini (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 67,7 ming kishi) tashkil etdi.

### Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha

2023-yil yanvar-dekabr

**Jamiga nisbatan ulushi,  
% da**



**Vafot etganlar.** 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 13,5 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 4,8 promilleni tashkil etdi, 2022-yilning mos davriga 5,0 promille bo‘lgan.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 13,5 ming nafar o‘lim qayd etilgan bo‘lib, vafot etganlarning 68,5 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 6,7 % i xafvli o‘simtalardan, 3,5 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,3 % i ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 6,4 % i nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 0,4 % i yuqumli va parazitari kasalliklardan hamda 11,2 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.



## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Hududlar kesimida vafot etganlar sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi**  
(1-yanvar holatiga)

Hududlar	2022-yil	2023-yil*	O'sish sur'ati +:-
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>13 851</b>	<b>13 507</b>	<b>-344</b>
Termiz sh.	1058	1038	-20
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	947	874	-73
Angor	900	775	-125
Bandixon	461	433	-28
Boysun	609	606	-3
Muzrabot	599	692	93
Denov	1737	1912	175
Jarqo'rg'on	1219	1176	-43
Qumqo'rg'on	1262	1109	-153
Qiziriq	599	680	81
Sariosiyo	797	812	15
Termiz	427	460	33
Uzun	925	816	-109
Sherobod	1135	1036	-99
Sho'rchi	1176	1088	-88



## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


### Hududlar bo'yicha nikoh tuzganlar sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi (yanvar-dekabr)



Hududlar	2022-yil	2023-yil*	O'sish sur'ati +:-
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>26 762</b>	<b>24 874</b>	<b>-1 888</b>
Termiz sh.	1775	1382	-393
tumanlar:			
Oltinsoy	1748	1777	29
Angor	1300	1150	-150
Bandixon	787	799	12
Boysun	1112	1056	-56
Muzrabot	1348	1321	-27
Denov	3959	3609	-350
Jarqo'rg'on	2529	2292	-237
Qumqo'rg'on	2542	2289	-253
Qiziriq	1104	1070	-34
Sariosiyo	1990	1893	-97
Termiz	821	825	4
Uzun	1741	1586	-155
Sherobod	1775	1653	-122
Sho'rchi	2231	2172	-59



## Hududlar bo'yicha nikoh tuzganlar soni va nikoh koeffitsiyenti kishi (2023-yil yanvar-dekabr)





## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


### Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi (yanvar-dekabr)

Hududlar	2022-yil	2023-yil*	O'sish sur'ati +:-
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2 804</b>	<b>3 047</b>	<b>243</b>
Termiz sh.	299	317	18
tumanlar:			
Oltinsoy	131	180	49
Angor	150	169	19
Bandixon	52	89	37
Boysun	88	129	41
Muzrabot	132	177	45
Denov	383	458	75
Jarqo'rg'on	267	236	-31
Qumqo'rg'on	197	239	42
Qiziriq	120	103	-17
Sariosiyo	266	246	-20
Termiz	119	108	-11
Uzun	230	171	-59
Sherobod	209	224	15
Sho'rchi	161	201	40

Ajrim koeffitsientida aksariyat tumanlarda o'tgan yilga nisbatan o'sish kuzatildi. O'tgan yilga nisbatan eng ko'p o'sish Oltinsoy tumani (0,2 promillega), Boysun tumani (0,3 promillega), Denov tumani (0,2 promillega) ro'y berdi.

Aksincha kamayish Uzun tumanida (-0,4 promillega) tumanida kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti (2023-yil yanvar-dekabr kishi, promille)



## Aholi migratsiyasi (kishi)

2023-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 10,0 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 13,6 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 3,6 ming kishi bo'lib, 2022-yilning mos davrida minus 4,4 ming kishi bo'lgan.

**2022-yil**  
yanvar-dekabr



**2023-yil**  
yanvar-dekabr



**Ko'chib ketganlar**     
 **Ko'chib kelganlar**     
 **Migratsiya saldosi**





## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### Hududlar kesimida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni (2023-yil yanvar-dekabr uchun, kishi)

Hududlar	Ko'chib kelganlar soni	Ko'chib ketganlar soni	Migratsiya saldosı
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>9 997</b>	<b>13 556</b>	<b>-3 559</b>
Termiz sh.	3248	1744	1 504
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	255	614	-359
Angor	680	627	53
Bandixon	250	361	-111
Boysun	358	720	-362
Muzrabot	424	884	-460
Denov	646	1356	-710
Jarqo'rg'on	625	1055	-430
Qumqo'rg'on	626	1085	-459
Qiziriq	371	775	-404
Sariosiyo	291	789	-498
Termiz	1024	954	70
Uzun	315	756	-441
Sherobod	503	929	-426
Sho'rchi	381	907	-526





# SURXONDARYO VILOYATI

## STATISTIKA BOSHQARMASI

### Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan



## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi**  
**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**  
**Tel: (76) 225-65-60**